

MIRTEMIR QALAMIGA MANSUB "TOSHBU" SHE'RINING LIROEPIK JANRI

Iskandarova Barchinoy Xasan qizi

Ochilova Muxlisa Yorqinjon qizi

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti
Boshlang`ich ta`lim yo`nalishi 1-bosqich 103-guruhi talabalar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15245184>

Annotatsiya. Mirtemir qalamiga mansub "Toshbu"she'ri serqirra ijodkor Mirtemir haqida gap borar ekan, u faqat lirik she'rlar bilan cheklanibgina qolmay go'zal dostonlar, dramatik va nasriy asarlar yaratgan. She'r Toshbibi (ya'ni she'rda Toshbu) ismli ayolga bag'ishlab bitilgan bo'lib, uning yoriga sadoqati, ahdiga vafosi, tugamas bardoshi va metin irodasini tarannum etish orqali butun o'zbek ayollarining urush davrida ko'rsatgan matonatini tasvirlaydi.

Kalit so'zlar: Serqirra, lirik, toshbibi, sadoqat, ahd, vafo, bardosh, metin iroda, matonat.

THE LYROEPIC GENRE OF THE POEM "TASHBU" BY MIRTEMIR

Abstract. The poem "Tashbu" by Mirtemir is about the prolific writer Mirtemir, who was not limited to lyrical poems, but also created beautiful epics, dramatic and prose works. The poem is dedicated to a woman named Toshbibi (i.e. Toshbu in the poem), and by praising her loyalty to her husband, her loyalty to her covenant, her endless endurance and her strong will, it describes the fortitude shown by all Uzbek women during the war.

Keywords: Serqirra, lyrical, tashbibi, loyalty, covenant, fidelity, and endurance, firm will, fortitude.

ЛИРОЭПИЧЕСКИЙ ЖАНР ПОЭМЫ «ТАШБУ» МИРТЕМИРА

Аннотация. Поэма «Ташбу» Миртемира Если говорить о разностороннем художнике Миртемире, то он не ограничивался только лирическими поэмами, но и создавал прекрасные эпические, драматические и прозаические произведения. Стихотворение посвящено женщине по имени Тошибиби (то есть Ташбу в стихотворении), и, восхваляя ее верность мужу, приверженность завету, бесконечную выносливость и сильную волю, оно описывает стойкость, проявленную всеми узбекскими женщинами во время войны.

Ключевые слова: Серкирра, лирика, ташбibi, преданность, завет, верность, выносливость, твердая воля, стойкость.

Kirish:

XX asr o‘zbek she’riyatining ulkan vakili Mirtemir Tursunov 1910-yilning 10-mayida Ko‘hna Turkistonning Qatag‘on etaklaridagi Eski Iqon qishlog‘ida tug‘ilgan. Shoирning birinchi she’ri "Tanburim ovozi" nomi bilan 1926-yili "Shula qo‘ynida" nomli ilk she’ri esa 1928-yilda e’lon qilingan. Shuningdek tarjima sohasida ham barakali ijod qilgan. Mirtemirning ijodiy qiyofasini belgilaydigan, uning o‘zbek kitobxoni uchun ardoqli qilgan narsa-uning she’riyati.

Mirtemir samimi tuyg‘ularni nozik kechinmalarni sodda va tushunarli ifodalay oladigan san’atkor. Uning "Bu men tug‘ilgan tuproq", "Onaginam", "Toshbu", "Betobligimda" nomli she’rlari mavjud.

Muhokama qismi:

"Toshbu"sherida inson ruhiyatining chuqur qatlamlarini va hayotning murakkabligi va go‘zalligini tasvirlaydi. She'da ayollar obrazining asosiy o‘rni mavjud. Ayollar-bu shoирning tasvirlarida bir vaqtning o‘zida nafis go‘zal lekin murakkab va o‘ziga xos mavjudotlardir. Ular shodlik va qayg‘u baxt va azob, sevgi va jahlning timsoli sifatida namoyon bo‘ladi.

"Toshbu"

Toshbu Chayirsan, chechansan, chuchuksan so‘zsiz,
Ertakday ezgusan, buloq yanglig‘ pok.
Ko‘z ololmas hatto ilg‘asa ko‘zsiz,
Holbuki, munslug‘san. G‘amdan ko‘ksing chok.
Yor jangga jo‘narkan: «Bo‘shashma», — devdi,
Bo‘shashgan paytda ham bo‘lolding tetik.
Bilarding — u seni jonidek sevdi,
Egningda kalta to‘n, oyoqda etik,
Ko‘ngil qo‘yding suyuk paxtazoringga,
Jo‘yaklarda qolding qosh qorayguncha.
Ter to‘kib ko‘z tikding o‘z devkoringga,
Vafo bo‘lsa agar, bo‘lur-da shuncha!
Burmalik ko‘ylak ham, nimcha-yu g‘ijim,
Sirg‘alar sandiqqa tushdi. Bardosh bu...
Xilvatda yosh to‘kding yomg‘irday sim-sim,
Keyin yig‘i ham tark. Bosh bo‘lding, Toshbu...
O‘n juvonga boshliq — ko‘p ham osonmas,

Tun og‘ir va uzun, bo‘lar eding xun.
Bu to‘y kунидаги quvnoq javlonmas,
Ter to‘kding ham o‘zing, ham ering uchun
Qirov ketmasidan tashiding o‘g‘it,
To‘qiltoq arava — uloving eshak.
O‘n juvon izmingda — maslahat, o‘git,
Dарддошлик ham og‘ir, ko‘p og‘ir, beshak.
O‘z bo‘yningda edi suv, o‘toq, chopiq,
Esda turmas edi soch tarash hatto.
Sho‘x hislarga qalbing darchasi yopiq,
Kulib qaraganga jo‘n qarash hatto.
Dalaga ergashar ikki bolang ham,
Biri choy qaynatar, biri tashir suv.
Erkak mehnatiga ko‘nikding kam-kam,
Bu ham jang edi-da, qattol jang, Toshbu!
Har qalay qaynashdan qolgan yo‘q qozon,
O‘rtada quyuqmi, suyuqmi — yovg‘on.
Buvak ham, go‘dak ham bo‘lmadi xazon,
Badnom etolmadi biror qing‘ir jon.
Kosang toza, halol, butun va beyuq,
Qoraxat, nim qahat sololmadi chang.
Jamolingga har gal suqulolmay suq:
Buncha toshbag‘ir! — der badar ketdi gang.
Toleying bor emish, tole yor emish,
Keldi axir jangchi: bas deb, shum firoq.
O‘pkasida moshdek o‘q ham bor emish,
Tirsakdan bir qo‘l yo‘q: Sendan g‘ash yiroq.
Seni sal xo‘rlagan sira insonmas,
Ko‘zлaringda g‘urur va baxtdan yosh bu.
Sensiz O‘zbekiston — O‘zbekistonmas,
Sensiz keng jahon ham sira jahonmas.

"Toshbu" she'rida shoir urush deb atalmish sovuq nafasning bizning yurtimizni ham chetlab o'tmagani barcha erkaklar urushga olib ketilganligi, natijada barcha mas'uliyat, og'ir-u yengil ishlar ayollarning zimmasiga tushganligini, o'sha davrdagi o'zbek ayollarining ko'rsatgan tengsiz jasoratini Toshbu ismli shunday zahmatlar totini totgan bir ayol timsolida ochib bergan.

Turmush o'rtog'ini frontga jo'natib ikki nafar farzandi bilan yolg'iz qolgan Toshbu kelinchak zeb-ziynatlarini ham sandiqqa tashlab erkaklarning og'ir mehnatini o'z zimmasiga olgan. Shu davrning asosi bo'l mish Paxtazorlarda qosh qorayguncha tinim bilmadi, o'zidek juvonlarga to'g'ri yil ko'rsatib, yo'lboshchi bo'ldi. Ayol sifatida zirak taqish, chiroyli ko'yaklar kiyish U yodda tursin, hatto soch tarash ham unga unut bo'ldi. Kunduzi mehnatdan, kechalari g'amdan ezildi Afsuski aynan shu holat va kechinmalar urush davrida hech bir ayol uchun yod narsa emas edi.

Obrazlar va simvollar:

She'nda ayollarni obraz sifatida bir necha qatlamlarda tasvirlash orqali Mirtemir ularga ko'proq ma'no yuklaydi. Ayollarni tashqi go'zalligi, ularning ruhi o'ziga xosligi bularning barchasi birlashtirilgan holda she'riyatda keng yoritiladi. Ayollarning obrazlari ko'pincha bir xil vaqt ichida o'zgaruvchi va ikki tomonlama bo'ladi: bir tomonidan ular murakkab va go'zal, ikkinchi tomonidan esa ularning his tuyg'ulari murakkab va chiroyli ko'rinishdagi xatolikni ifodalaydi.

Adabiy vositalar:

Mirtemir she'rlarida tasvirlash, taqqoslash, metafora va boshqa adabiy vositalarni keng qo'llaydi. Toshbu she'rida bu vositalar faol ishlatilgan. She'nda go'zal o'xshatmalar, tasvirlar va qochirimlardan o'rinli va unumli foydalanilgan. Ushbu lirik asarda tashbeh (o'xshatish) san'ati yetakchilik qiladi desak mubolag'a bo'lmaymiz. Qolaversa artilleratsiya, tazod va tanishib, nido san'atlarini ham uchratishimiz mumkin.

a) Tashbeh

Chaqirsa, chechansan, chuchuksan so'zsiz,
Ertakday ezbusan, buloq yanglig' pok.
Hilvatda yosh to'kding yomg'irday sim-sim,
Keyin yig'i ham tark. Bosh bo'lning Toshbu .
O'pkasida moshdek o'q ham bor emish,
Tirsakdan bir qo'l yo'q: Sendan g'ash yiroq.

b) Artilleratsiya

Chayirsan, chechansan, chuchuksan so‘zsiz

Ertakday ezgusan, buloq yanglig‘ pok.

c) Tazod

Yor jangga jo‘narkan: "Bo‘shashma", - devdi

Bo‘shashgan paytda ham bo‘lding tetik.

Har qanday qaynashdan qolgan yo‘q qozon,

O‘rtada quyuqmi, suyuqmi-yolg‘on.

Xulosa:

"Toshbu"sheri Mirtemirning she'riyatidagi ayollar obrazlari orqali insonning ichki dunyosini hissiyotlarini va hayotga bo‘lgan qarashlarini yoritadi. She'rning asosiy mavzusi sevgi, go‘zallik va murakkablikdir. Shoir o‘zining san'ati orqali nafaqat tashqi ko‘rinishlarini, balki ichki tuyg‘ularini ham ifodalaydi. She'rni o‘qish orqali biz hayotning murakkabligi, sevgi va baxtning turli qatlamlarini anglaymiz.

REFERENCES

1. 1.7-sinf adabiyoti darsligi 326-328 bet. Toshkent "O‘zbekiston" nashriyoti.
2. Mukammal qo‘llanma. Adabiyot. Sharifjon Sariyev.Nashriyot 2023: Toshkent 176-205 betlar.
3. 7-sinf adabiyoti darsligi 332-333 betlar. Toshkent "O‘zbekiston" nashriyoti.
4. O‘zbek tilidan ma’ruzalar to‘plami "N. Erkaboyeva" 87-89-betlar 2017-yil.